

Тўрамқулов Шоқир Нормўминович

*Ассистент кафедри физиологии, генетики и биохимии
Самаркандский государственный университет*

Turamqulov Shokir Normuminovich

*Assistant of the department of Physiology, Genetics and Biochemistry
Samarkand State University*

ФИЗИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ В РАЗЛИЧНЫХ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ЗОНАХ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

PHYSICAL DEVELOPMENT OF CHILDREN IN DIFFERENT GEOGRAPHICAL CLIMATIC ZONES

Аннотация. Были исследованы соматометрические показатели, масса тела, длина роста, размеры объема головы и грудной клетки у детей одного возраста, проживающих в различных климатических зонах Самаркандской области. В исследованиях принимали участия 650 мальчиков и девочек. Данные исследования осуществляли использованием антропометрических методов.

Ключевые слова: физическое развитие, антропометрия, соматометрия, динамик, масса, рост, грудная клетка, сезон.

Summary. Somatometric parameters, body weight, length of growth, size of head and chest volume in children of the same age living in various climatic zones of the Samarkand region were studied. In the studies, 650 boys and girls took part. These studies were performed using anthropometric methods.

Key words: physical development, anthropometry, somatometry, dynamics, mass, growth, thorax, season.

Маърузнинг долзарблиги. Болаларнинг jismoniy rivolanishi-bu ularning sog'ligi to'g'risida muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanishiga juda ko'p omillar tashqi muhit tasiri, ovqatlanishdagi milliy xususiyatlar va an'analar, tarbiyaviy, genitik, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'illanish va turli omillar bilan izohlanadi. Hozirgi vaqtda bolalarning jismoniy rivojlanishiga atrof- muhitning tozaligi, uy sharoiti va ekologiya holati ham muhim ahamyatga ega bo'ladi. Turli tatqiqotchilarning izlanishlariga qaraganda bolalarning jismoniy rivojlanishidagi o'zgarishlarni turli yosh davridagi bolalarda ham kuzatiladi. Turli yoshdagi bolalarda dinamik kuzatuvlar o'tkazilgan bu o'tkazilgan kuzatuvlar jismoniy rivojlanish va organizmning o'sishi, yetilishi va garmonik shakillanishning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Oxirgi tekshirishlar va kuzatuvlarga qaraganda turli mamlakatlarda bolalarning bo'yi o'sishi tana og'irligi pastlashib borayotganligi malum qilindi. Bolalarning oxirgi o'sishini birdan tushib ketishining darajasi 3% dan 6%gacha pasaygan. Turli joylarda yashaydigan o'g'il va qizlarni bo'yining o'sishi tana vaznining o'zgarishida jismoniy balog'at yoshiga yetishdagi o'zgarishlar kuzatilgan. T.S. Krivaruchko

ham o'z izlanishlarda o'g'il bolalarning gavda tuzilishi o'sishi 13 yoshdan qiz bolalarda esa 12 yoshdan o'zgarishini aniqlagan. A. T. Boygazikovaning izlanishlarida esa qirg'iz bolalari ya'ni qiz bolalarda gavda tuzilishini o'sishi 13–14 yoshda, o'g'il bolalarda 15–16 yoshda deb ma'lum qiladi. Yu. A. Yanpolskiy ma'lumotlariga ko'ra boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda bo'y o'sishi aniqladi. 10 yoshdagi qizlarda esa jismoniy rivojlanish o'g'il bolalarga nisbatan tez o'sadi. Intensifikatsiya o'g'il bolalarning o'sishi 13 yoshdan boshlanadi. Gavda o'zgarishi o'g'il bolalarda qizlarga nisbatan 15 yoshda boshlanadi, ya'ni rivojlanadi.

Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari. Bizning izlanishlarimizda Samarqand viloyatining bir-biridan keskin farq qiluvchi 2 ta geografik hududda yashovchi Oqdaryo va Nurobod tumanidagi bolalar va o'smirlarning o'shish va rivolanishi bazi omasametrik ko'rsatkichlarni bir-biriga qiyosiy taqqoslab, ular o'rtasidagi o'xshashlik va farq qiluvchi tomonlarni aniqlashni maqsad qilib oldik. O'tkazilgan tekshirish ishlarida 7–8, 14–15 yoshli 650 nafar o'g'il va qiz bolalar (Oqdaryo tumanidan 350 nafar, shundan 190 ta o'g'il bola va 160 tasi qiz bola) Nurobod tumanidan 160 ta qiz bola 140 ta o'g'il bola) lar ishtirok

etishdi. Tekshirishlar antropometriya usuli orqali amalga oshirilgan. Bo'y ko'rsatkichlari vertikal rastometra bosh va ko'krak aylanasi millimetrda, tana vazni tibbiyot tarozisida aniqlanadi. Olingan ma'lumotlar Styudent Fisher varaqasi statistika usulida hisoblab chiqildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tekshirish natijalari va taxlili ko'zatuvarlar shuni ko'rsatadiki, vazn ko'rsatkichlari bo'yicha 2 ta hududdagi bolalarda bir xil emas. Har ikkala tumanda yashovchi o'g'il va qiz bolalarning vazn ko'rsatkichlari quyidagicha o'zgartirildi. Oqdaryo tumanida o'g'il bolalar 7 yoshda $24,1 \pm 0,9$ kg 8 yoshda $25,9 \pm 1,2$ kg, 14 yoshda $42,3 \pm 2,1$ kg, 15 yoshda $51,6$ kg. Qizlarda 7 yoshda $23,5 \pm 1,3$ kg, 8 yosh $25,1 \pm 1,1$ kg, 14 yoshda $45,0 \pm 2,5$ kg. Bolalar vaznining yillik o'sishi ko'rsatkichlari 7 yoshdan 8 yoshgacha $2,4$ kgacha 14–15 yoshda $4,5$ kg ga tebrangan. Nurobod tumanida yashovchi o'g'il va qiz bolalarning vazn ko'rsatkichlari bo'yicha o'g'il bolalarda $24,2 \pm 1,1$ kg, 8 yoshda $27,3 \pm 1,0$ kg, 14 yoshda $44,2 \pm 2,6$ kg, 8 yosh $26,0 \pm 1,3$ kg, 14 yosh $44,7 \pm 1,9$ kg va 15 yosh $47,0 \pm 1,1$ kg gacha bo'lgan. Bolalar vaznining yillik o'sish ko'rsatkichlari 7–8 yosh davridagi $3,1$ kg ga, 14–15 yosh davrida $8,3$ kg ga tebrangan. Qizlarda 7–8 yosh davrida $4,0$, 14–15 yosh davrida $3,7$ kg ga tebrangan. 14–15 yoshda bo'lgan davrda quyidagicha o'zgartirildi. Oqdaryo tumanida o'g'il bolalarda $27,5$, Nurobodda $28,3$ kg, qizlarda Oqdaryo tumanida 26 kg, Nurobod tumanida $24,8$ ni tashkil etdi. O'g'il va qiz bolalarning bo'yining uzunligi bo'yicha olingan natijalarga ko'ra Oqdaryo tumanida yashovchi o'g'il bolalar ko'rsatkichlari 7 yosh $120,4 \pm 0,3$, 8 yosh $125,4 \pm 2,1$, 14 yosh $152,4 \pm 1,9$, 15 yosh $155,7 \pm 4,0$, 15 yosh $163,9 \pm 5,5$, 14 yosh $155,7 \pm 1,2$ va 15 yosh $163,9 \pm 1,9$ ni tashkil etdi.

Bo'y ko'rsatkichlari bo'yicha Oqdaryo tumani o'g'il bolalari 7 yosh $120,4 \pm 0,1$ sm, 8 yosh $125,1 \pm 1,9$ sm, 14 yosh $152,4 \pm 2,9$ sm, 15 yosh $159,9 \pm 2,2$ sm, qizlarda 7 yosh $120,3 \pm 0,2$ sm, 8 yosh $123,9 \pm 2,2$ sm, 14 yosh $154,5 \pm 1,7$ sm, 15 yosh $156,4 \pm 1,3$ sm. Bolalarning bo'y o'sishining yillik ko'rsatkichlarini hisoblaganimizda 7–8 yoshli davrida $5,0$ sm ga o'sgan. 14–15 yoshli davrida $7,5$ sm ga o'sgan. 7–15 yoshli davrida $39,5$ sm (33%) ga o'sgan. Qizlarda esa 7–8 yoshgacha bo'lgan davrda $3,6$ sm ga o'sgan. 14–15 yoshgacha bo'lganda $2,1$ sm ga o'sgan. 7–15 yoshgacha bo'lgan davrda $36,1$ sm (30%).

Shu yoshdagi Nurobod tumanida yashovchi o'g'il va qizbolalarning bo'y ko'rsatkichlari o'g'il bolalarda 7 yosh

$123, \pm 1,9$ sm, 8 yosh $131,5 - 1,8$ sm, 14 yosh $155,7 \pm 4,0$ sm, 15 yosh $163,9 \pm 5,5$ sm. Yillik o'sish ko'rsatkichlari bo'yicha 7–8 yoshgacha bo'lgan davrda $40,8$ sm (34%) ni tashkil qildi. Qizlarda esa 7 yosh $121,6 \pm 3,0$ sm, 8 yosh $130,0 \pm 2,3$ sm, 14 yosh $155,7 \pm 3,9$ sm, 15 yosh $155,9 \pm 3,7$ sm. yillik o'sish ko'rsatkichlari 7–8 yosh $7,6$ sm, 14–15 yoshda $9,2$ sm, 14–15 yoshgacha bo'lgan davrda $34,3$ sm (29%) ga o'sgan. Ko'krak qafasi aylanasi kattalashishi bo'yicha 7–15 yoshgacha bo'lgan davrda Oqdaryo tumanida $2,7$ (4,6%) qizlarda $2,5$ sm (4,4%) Nurobod tumanida 3 sm (5,2%) qizlarda $2,1$ (3,7%) kattalashgan. 14 yoshlarda Oqdaryo tumanida $3,5$ sm (4,3%) qizlarda $3,9$ sm (5,2%) Nurobod tumanida $10,9$ sm (15%) qizlarda $7,9$ (11%) o'sgan. Somatometrik ko'rsatkichlardan bosh aylanasi o'lchamlari aniqlanganda 7 yoshli Oqdaryo tumanidagi o'g'il bolalarda $51,7 \pm 0,5$ sm 15 yoshda $54,5 \pm 0,7$ sm, Nurobod tumanidagi 7 yoshli o'g'il bolalarda $52,1 \pm 1,0$ sm 15 yoshda $55,5 \pm 1,1$ sm qizlarda $51,2 \pm 1,9$ sm 15 yoshda $54,4 \pm 1,1$ sm. Bosh aylanasi o'sishi 7–15 yoshgacha bo'lgan davrda Oqdaryo tumanida $3,4$ sm (6,5%) ni qizlarda $3,2$ sm (6,2%), Nurobod tumanida $2,6$ sm (5%) ni, qizlarda $3,3$ sm (6,4%) ga o'sgan.

Xulosalar

1. Biz olib borgan tekshirish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, 2 ta deografik hududda yashovchi teng yoshdagi bolalarning o'sish va rivojlanishida o'xshashlik va farq qiluvchi tomonlarni ko'rish mumkin.

2. Bo'y o'sish ko'rsatkichlari bo'yicha Nurobod tumani bolalari barcha yosh guruhlari bo'yicha Oqdaryo tumani bolalari ga nisbatan yuqoriroq bo'ladi.

3. Tana vazni bo'yicha olingan natijalariga ko'ra har ikkala hududda yashovchi o'g'il bolalarda vazni bo'yiga teng 8–14 va 15 yoshlarda Nurobod tumanida yashovchi bolalarda yuqori. Qizlarda esa teskari 7,14,15 yoshlarda Oqdaryo tumani qizlarida vazn ko'rsatkichlari yuqori.

4. Ko'krak va bosh aylanasi bo'yiga olingan natijalarda o'xshashlik va farqlar borligi aniqlandi. Ko'krak aylanasi o'lchamlari bo'yicha 8 yoshlarda bir xil qizlarda 7 yosh va 8 yoshda teng qolgan yoshlarda farqlar mavjud.

5. Har ikkala hududda yashovchi 14 yoshli qizlarda bo'y o'sish ko'rsatkichlari oldingi yillarga nisbatan pasaygan.

Адабиётлар рўйхати

1. Ленова А. В., Матвеева Н. А. / Рос. Педиатр. Журнал. — 2004. — № 3 — с. 10–14.
2. Кучма В. Р. Скоблина Н. А. / Вопр. Современ. Педиатр. — 2008 — т. 7, № 1. — с. 26–28.
3. Янпольская Ю. А. / Рос. Педиатр. Журн. — 1988 — № 1 — с. 9–11.
4. Тўрамуқлов Ш. Н. / Республика илмий-амалий конференция материаллари. Гулистон — 2014. — 233–236 б.